



“COMPARATIVE-TYOLOGICAL ANALYSIS OF COLOR SYMBOLS IN DĪWĀN LUGHĀT AL-TURK AND QUTADGHU BILIG”

Turgunov Nuriddin Maxkamboy o'g'li

International Islamic Academy of Uzbekistan

2nd-year Master's student in Textology and Literary Source Studies (Arabic Language)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20441969>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2026

Accepted: 27th May 2026

Online: 28th May 2026

KEYWORDS

Colour symbolism, comparative-typological analysis, Diwan Lughat al-Turk, Kutadgu Bilig, semiotics, linguoculturology, colour semantics, Turkic written monuments.

ABSTRACT

This article presents a comparative-typological analysis of colour symbols in two major Turkic written monuments of the 11th century — Mahmud al-Kashghari's Diwan Lughat al-Turk (1072–1074) and Yusuf Khass Hajib's Kutadgu Bilig (1069–1070). Six primary colour terms (white, black, blue, red, yellow, green) are examined through Yu.M. Lotman's semiotic theory, V.I. Karasik's linguocultural concept model, and B. Berlin–P. Kay's universals framework. The analysis reveals a shared semantic core in both sources, while showing that the Diwan foregrounds cosmological functions and the Kutadgu Bilig emphasises epistemic-ethical and politico-philosophical dimensions of colour symbolism.

«СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЦВЕТОВЫХ СИМВОЛОВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ДИВАН ЛУГАТ АТ-ТУРК И КУТАДГУ БИЛИГ»

Тургунов Нуриддин Махкамбой угли

Международная исламская академия Узбекистана

магистрант 2 курса специальности «Текстология и литературное источниковедение (арабский язык)»

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20441969>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2026

Accepted: 27th May 2026

Online: 28th May 2026

KEYWORDS

Цветовой символ, сравнительно-типологический анализ, Девону луғотит турк, Қутадғу билиг, семиотика, лингвокультурология, цветовая символика, тюркские письменные памятники.

ABSTRACT

В статье проведён сравнительно-типологический анализ цветových символов в двух крупнейших тюркских письменных памятниках XI века — «Девону луғотит турк» (1072–1074) Махмуда Кошғарий и «Қутадғу билиг» (1069–1070) Юсуфа Хосс Хожиба. Шесть основных цветов (белый, чёрный, синий, красный, жёлтый, зелёный) рассмотрены на основе семиотической теории Ю.М. Лотмана, лингвокультурологической модели В.И. Карасика и концепции А. Вежбицкой. Установлено, что оба памятника разделяют общее семантическое ядро — космологическо-географические и нравственно-эстетические функции, но с различной доминантой: в



«Девону луғотит турк» преобладает космологическая, в «Қутадғу биліг» — эпистемико-этическая и политико-философская функции.

“DEVONU LUG’OTIT TURK” VA “QUTADG’U BILIG”DAGI RANG TIMSOLLARINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI

Turg’unov Nuriddin Maxkamboy o’g’li

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (arab tili) mutaxassisligi 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20441969>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2026

Accepted: 27th May 2026

Online: 28th May 2026

KEYWORDS

Rang timsoli, qiyosiy-tipologik tahlil, Devonu lug’otit turk, Qutadg’u bilig, semiotika, lingvokulturologiya, rang simvolikasi, turkiy yozma manbalar.

ABSTRACT

Maqolada XI asrga oid ikki buyuk turkiy yozma manba — Mahmud Koshg’ariyning “Devonu lug’otit turk” (1072–1074) va Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” (1069–1070) asarlaridagi oltita asosiy rang timsolining (oq, qora, ko’k, qizil, sariq, yashil) qiyosiy-tipologik tahlili amalga oshirildi. Tadqiqot Yu.M. Lotmanning semiotik nazariyasi, V.I. Karasikning lingvokulturologik kontsept modeli va B. Berlin–P. Kay universalialari asosiga qurilgan. Tahlil ikkala manbada umumiy semantik yadro — kosmologik-geografik va axloqiy-estetik funksiyalar — mavjudligini ko’rsatdi; biroq “Devonu lug’otit turk”da kosmologik funksiya, “Qutadg’u bilig”da epistemik-axloqiy va siyosiy-falsafiy funksiya yetakchi ekanligini aniqladi.

“Devonu lug’otit turk” (1072–1074) va “Qutadg’u bilig” (1069–1070) — XI asrning qo’shni yillarda yaratilgan, turkiy adabiy-madaniy merosning ikki buyuk yodgorligidir. Mahmud Koshg’ariy va Yusuf Xos Hojib bir davrda, bir madaniy muhitda ijod qilgan bo’lsalar-da, asarlari metodologik yo’nalish jihatdan tubdan farq qiladi: biri leksikografik va empirik, ikkinchisi badiiy-falsafiy va normativ. Aynan shu farq rang timsollarining ikki manbada turlicha talqin etilishiga sabab bo’lib, bu tadqiqotning asosiy ilmiy muammosini tashkil etadi.

Rang timsoli — insoniyat tafakkurining eng qadimiy semiotik hodisalaridan biri. Biroq XI asr kabi islomiy ta’limot va qadimgi turk kosmologiyasining kesishgan davrida rang simvolikasini kompleks tarzda o’rganish hali yetarlicha amalga oshirilmagan. Maqolaning maqsadi — “Devonu lug’otit turk” va “Qutadg’u bilig”dagi olti asosiy rang timsolini qiyosiy-tipologik metod asosida tahlil etib, ularning semantik mushtaraklik va funksional farqlarini aniqlash.¹

Tadqiqot uchta yondashuvning sinteziga qurilgan. Yu.M. Lotmanning

¹Berlin B., Kay P. Basic Color Terms: Their Universality and Evolution. — Berkeley: Univ. of California Press, 1969. — P. 2–4.



ikkilamchi modellashtiruv tizimlari nazariyasiga ko'ra, rang timsollari tabiiy tilning ustiga qurilgan semiotik strukturalar sifatida o'rganiladi: rang belgisi nafaqat vizual idrok natijasidir, balki ijtimoiy, diniy va falsafiy mazmunlarni ifodalovchi semiotik birlikdir. V.I. Karasikning kontsept modeli — yadro, yaqin periferiya va uzoq periferiya — har bir rang kontseptining semantik hajmini aniq tavsiflash imkonini beradi: yadroda rang leksemasining o'zi, yaqin periferiyada tabiiy ob'ektlar (osmon, o't, qon, barg), uzoq periferiyada falsafiy-axloqiy tushunchalar (poklik, jasorat, bilim, adolat) joylashadi. B. Berlin va P. Kayning rang terminlari universal evolyutsiyasiga doir nazariyasi hamda A. Wierzbickaning madaniyatlararo semantik universalialar kontsepsiyasi ranglarning universal va mahalliy-madaniy qatlamlarini farqlash metodini taqdim etadi.

“Devonu lug'otit turk” va “Qutadg'u bilig”dagi rang kontrastlarining asosini oq-qora antitezasi tashkil etadi. “Devonu lug'otit turk”da oq rang (aq) kosmologik-geografik tizimda G'arb tomoni belgisi — “aq ulus” (g'arb iy viloyat) — va axloqiy poklikning timsoli — “aq yu'rek” (pokdil kishi) — sifatida qo'llaniladi. “Qutadg'u bilig”da esa oq rang epistemik maydon markaziga joylashadi: “O'gren bilgi, ol ak yu'zni ku'lu r” (“bilim o'rgan, u yuzni oqlaydi”) misrasida bilim va oq rang o'rtasida bevosita metaforik aloqa quriladi. “Aq nom” (sharafli nom) birikmasida rang ijtimoiy obru' va sha'rafning o'lchovi sifatida namoyon bo'ladi. “Devonu lug'otit turk”da kosmologik-geografik funksiya ustun

bo'lsa, “Qutadg'u bilig”da epistemik-axloqiy funksiya yetakchi.

Qora rang (qara) “Devonu lug'otit turk”da Shimol tomonini — “qara el” (shimoliy o'lka) — va ijtimoiy tabaqalanishni — “qara budun” (oddiy mehnatkash xalq) — nisbatan neytral mazmunda ifodalaydi: bu birikmada rang kamsituvchi emas, balki saroy va harbiy amaldorlardan farqli ravishda oddiy xalqni belgilovchi ijtimoiy toifa sifatida qo'llanilgan. “Qutadg'u bilig”da esa qora rangning salbiy axloqiy-epistemik yuklanishi keskin kuchayadi: “Kara yu'z bolur ol biligsizge” (“bilim yo'q odamning yuzi qora”) misrasida rang jaholat va axloqiy tanazzulning bevosita ramziga aylanadi. “Qara ku'n” (qora kun — zulm va baxtsizlik davri) birikmasida ham bu salbiy qatlam mustahkamlanadi. Oq-qora antitezasi “Qutadg'u bilig”da yanada keskinlashuvi islomiy-tasavvufiy axloq falsafasining ta'limini ko'rsatadi.

Ko'k rang (ko'k) ikkala manbada ham “ilohiy quvvat” semantik o'zagini saqlaydi. “Devonu lug'otit turk”da “Ko'k Tengri” (Osmon Tangrisi) iborasi turk mifologik-diniy tizimining markaziy tushunchasi sifatida keng o'rin egallaydi; Koshg'ariy bu ibora turkiy qabilalar o'rtasida osmon-Tangriga sig'inish an'anasining leksik aksi ekanligini tavsiflaydi. “Ko'k yo'l” (erkin, to'siqlarsiz yo'l) birikmasida esa umid va erkinlik mazmuni ham saqlanadi.

“Qutadg'u bilig”da ko'k rang Forobiyning “Fozil odamlar shahri” kontsepsiyasidan ilhomlangan holda ilohiy adolat va hukmdorlik salohiyatining timsoli sifatida qo'llaniladi: adolatli hukmdor Allohning yerdagi namoyandasi sifatida kosmosning ko'k qatlami bilan bog'liqdir.



Bundan tashqari, “Qutadg‘u bilig”da ko‘k rang bilim nuri va intellektual ravshanlika ham ishora qiladi; bu mazmuniy kengayish islomiy ilm-ma‘rifat tafakkurining ta‘lirini ko‘rsatadi. Ko‘k rangning “Devonu lug‘otit turk”da kosmologik-etnografik (Tengrichilik an‘anasi), “Qutadg‘u bilig”da siyosiy-falsafiy (hukmdorlik va adolat) funktsiya kasb etishi XI asrda islomiy tafakkurning qadimgi turk kosmologiyasini qayta talqin qilishini yaqqol namoyon etadi.²

“Devonu lug‘otit turk”da qizil rang (qizil, al) Janub tomonining kosmologik belgisi — “qizil ordular” (janubiy qo‘shinlar) — va moddiy qadriyat mezoni — “qizil altun” (qizil oltin) — sifatida qo‘llaniladi. “Al qan” (qizil qon) birikmasida rang hayot, kuch va jasaratning bevosita timsoli bo‘ladi. Shunday qilib, “Devonu lug‘otit turk”da qizil rang uch asosiy semantik qatlam — kosmologik-geografik, harbiy-jasarat va moddiy qadr — uyg‘unligida namoyon bo‘ladi.

“Qutadg‘u bilig”da qizil rang siyosiy hokimiyat va saltanat institutining asosiy ramziga aylanadi: rang taxt libosi, shohlik muhri va davlat ramzlari bilan bevosita bog‘liq tarzda qo‘llaniladi. “Al yu‘z” (qizil yuz — g‘asabdan yoki uyatdan qizargan yuz) birikmasida rang inson emotsional holatining ham bevosita ifodachisiga aylanadi. Boz va Demirning tadqiqotida ta‘kidlanganidek, turkiy matnlarda qizil rang davlatchilik instituti shakllanishi bilan parallel ravishda kosmologik belgidan siyosiy ramzga aylangan. Ushbu o‘zgarish XI asrda turkiy

tafakkurning kosmologik tizimdan siyosiy falsafaga yo‘nalgan evrilishini yaqqol aks ettiradi.³

Sariq rang (sariq) “Devonu lug‘otit turk”da tabiiy tsikllar — “sariq yaprak” (sariq barg — kuz va o‘tkinchilik timsoli) — va moddiy boylik — “sariq altun” (sariq oltin) — bilan bog‘liq. “Sariq yu‘z” (sariq yuz — xasta yuz) birikmasida rang jismoniy holat tavsifiga ham kiradi. “Qutadg‘u bilig”da esa sariq rang ikki qarama-qarshi qutb o‘rtasida joylashadi: bir tomondan donishmandlik va oltinning timsoli, ikkinchidan keksalik va o‘tkinchilikning ramzi. Yusuf Xos Hojib sariq oltin va bilim-ma‘rifatni bir qatorda qo‘yadigan o‘xshashliklarni qo‘llib, ularning ikkalasi ham qo‘lga kiritish qiyin va bebaho ekanligini ta‘kidlaydi. Sariq rangning ushbu semantik ikiligi — boylik va o‘tkinchilik, bilim va zaiflik — uni boshqa rang timsollaridan ajratib turadigan noyob xususiyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Yashil rang (yashil) “Devonu lug‘otit turk”da bahor yangilanishi va tabiat tirikligining timsoli — “yashil ot” (yashil o‘t) — sifatida ifodalanib, kosmologik-geografik tizimda biror alohida tomonga birlashtirilmaydi, bu uni beshta asosiy rangdan funksional jihatdan ajratib turadi. “Qutadg‘u bilig”da esa yashil rang islomiy an‘anadagi jannat va ruhiy yuksaklikning ramziga aylanadi: “Bir kun yashil bahor keladi) misrasida rang nafaqat tabiiy bahorni, balki ruhiy tiklanish va adolat davrining kelishini ham anglatadi. “Devonu lug‘otit turk”da tabiat-hayot

²Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig / Tarj.: Q. Karimov. — Toshkent: Fan, 1971. — 203-bet.

³Boz E., Demir C. Türkçede Renk Adlarının Kavramsal Analizi // Türk Dünyası Araştırmaları. — 2012. — № 197. — S. 78–80.



funksiyasi, “Qutadg‘u bilig”da jannat-ruhiyat funksiyasining ustuvorligi islomiy ta‘limotning turkiy rang-ramz tizimiga kirib kelishi va mahalliy an‘ana bilan sintez hosil qilishining yana bir isbotidir.

Karasik metodologiyasi asosida “Devonu lug‘otit turk”da rang leksemalarining 52 ta birikmada qayd etilganligi aniqlandi: eng faol guruhlar “qara” (17 birikma) va “aq” (14 birikma) hisoblanadi. Ikkala manbada rang kontseptlari uchta qatlamli tuzilish kasb etadi: yadroda rang leksemasining o‘zi (aq, qara, ko‘k, qizil, sarig, yasil), yaqin periferiyada tabiiy hodisalar va ob‘ektlar bilan bog‘liq ma‘nolar (osmon, o‘t, qon, barg, oltin), uzoq periferiyada esa falsafiy-axloqiy tushunchalar (poklik, jasorat, bilim, adolat) joylashadi.

“Qutadg‘u bilig”dagi rang so‘zlari umumiy so‘z boyligining taxminan 2,3 foizini tashkil etib, bu ko‘rsatkich “Devonu lug‘otit turk”dagiga nisbatan sezilarli darajada yuqori. Bunday nisbat Yusuf Xos Hojibning rang timsolini ongli badiiy-falsafiy vosita sifatida keng qo‘llaganini ko‘rsatadi: rang uning uchun nafaqat ko‘rish organi orqali qabul qilinadigan fenomen, balki murakkab falsafiy-axloqiy tushunchalarni ifodalovchi semiotik belgi. Rang kombinatsiyalari — “Devonu lug‘otit turk”da to‘rt tomonning tavsifida va harbiy kontekstda, “Qutadg‘u bilig”da axloqiy qarama-qarshiliklar (oq-qora, yorug‘-qorong‘u) ifodasida keng qo‘llanilishi — Lotman ta‘kidlagan “bir xil belgi turli matn tizimlarida tamoman boshqa funksiyani bajarishi mumkin” qonuniyatini “Devonu lug‘otit turk” va “Qutadg‘u bilig” misolida yaqqol isbotlaydi.

“Devonu lug‘otit turk” va “Qutadg‘u bilig”dagi rang timsollarining qiyosiy-tipologik tahlili to‘rt asosiy xulosaga olib keladi. Birinchidan, ikkala manbada ham umumiy semantik yadro — poklik (oq), kuch (qizil), ilohiylik (ko‘k) — mavjud bo‘lib, bu XI asrdagi yaxlit turkiy rang-ramziyat tizimining mavjudligini tasdiqlaydi. Ikkinchidan, “Devonu lug‘otit turk”da kosmologik-geografik va leksikografik-empirik funksiya, “Qutadg‘u bilig”da esa epistemik-axloqiy va siyosiy-falsafiy funksiya ustun — bu ikki muallif metodologiyasining asosiy farqini belgilaydi.

Uchinchidan, oq-poklik, yashil-jannat va qora-jaholat semantikasining “Qutadg‘u bilig”da kuchayishi islomiy-tasavvufiy an‘ananing XI asrda turkiy rang-ramziyat tizimiga organik singib ketganini ko‘rsatadi. To‘rtinchidan, “Devonu lug‘otit turk” tizimni empirik jihatdan qayd etsa, “Qutadg‘u bilig” uni badiiy-falsafiy kontekstda boyitib, XI asrning rang-ramziy manzarasini to‘liq saqlab qolgan. Natijada XI asrdagi turkiy rang-ramziyat tizimlari uchun qadimgi turk kosmologiyasi, islomiy-tasavvufiy an‘ana va O‘zbekiston va O‘rta Osiyo madaniy muhiti o‘zaro sintez hosil qilib, mahalliy va universal elementlarning noyob birikmasini yaratganligi ilmiy jihatdan asoslanadi. Mazkur tadqiqot natijalaridan turkiy tilshunoslik, semiotika va lingvokulturologiyaga doir oliy ta‘lim kurslari va qiyosiy



adabiyotshunoslik tadqiqotlarida
foydalanish mumkin.⁴

References:

1. Koshg'ariy M. Devonu lug'otit turk. I–III tomlar. — Toshkent: Fan, 1960–1963.
2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig / Tarj.: Q. Karimov. — Toshkent: Fan, 1971.
3. Lotman Yu.M. Semiotika kul'tu ry i ponyatiye teksta // Trudy po znakovym sistemam. XI. — Tartu: TGU, 1981. — S. 3–7.
4. Karasik V.I. Yazyk sotsial'nogo statusa. — Moskva: Gnozis, 2002.
5. Berlin B., Kay P. Basic Color Terms: Their Universality and Evolution. — Berkeley: Univ. of California Press, 1969.
6. Wierzbicka A. Semantics, Culture and Cognition. — New York: Oxford University Press, 1992.
7. Schimmel A. Islam Estetigi. — Istanbul: Kabalc'ı Yayınevi, 1999.
8. Ercilasun A.B., Akkoyun Z. Diwanü Lugati't-Türk. — Ankara: TDK, 2014.
9. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili. — Toshkent: Fan, 2007.
10. Komilov N. Tasavvuf. I kitob. — Toshkent: Movarounnahr, 2009.
11. Boz E., Demir C. Türkçede Renk Adlarının Kavramsal Analizi // Türk Dünyası Araştırmaları. — 2012. — № 197.
12. Abdrakhynova G. Rango-simvolicheskiye sistemy tyurkoyazychnykh narodov XI veka // Vestnik KazGU. — 2018. — № 3.

⁴Karasik V.I. Yazyk sotsial'nogo statusa. — Moskva: Gnozis, 2002. — 46-bet.